



AYOLLAR MAVSUMIY KLASSIK KIYIMLARINI LOYIHALASH

Maqsudov Shohruxmirzo Abdulhamid o'g'li

Namangan muhandislik texnologiya instituti, PhD, katta o'qituvchi

Mamadjanova Gulshirin Shuhratjon qizi

Namangan muhandislik texnologiya instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567700>

ARTICLE INFO

Received: 17th January 2023

Accepted: 20th January 2023

Online: 25th January 2023

KEY WORDS

klassik uslub, gazlamalar assortimenti, dizayn, loyiha.

ABSTRACT

Ushbu maqolada klassik uslub tarixini o'rgangan holda, turli xildagi maxsus gazlamalardan foydalanib ayollar mavsumiy klassik liboslarini zamonaviy talqindagi dizayn loyihasini ishlab chiqish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Klassik (odmiy, ishbilarmon, elegant) uslubiga modaga deyarli sig'inmaydigan, turg'un vaqt davomida tanlangan, deyarli o'zgarmaydigan uslub. Klassik uslub – chiziqlarni sipoligi va oddiyligi, bichimni mantiqaligi. Odatda, klassik uslubdagi buyumlar – bu ko'zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e'tiborni uziga sifati bilan tortadi. Klassik uslubini asosida, uni ba'zi elementlarini kombinatsiya qilib, har xil mikrouslublar shakllanadi. Klassik uslubga libosning barcha elementlarini kiritish mumkin. Yangi klassika, odatiy shakllarning sipoligini yo'qotdi – modellar yumshoq, tabiiy va oliyjanob. Ammo, avvalgidek klassika detallarni minimumi bilan farqlanadi. Ko'pincha materiallar erkaklar modasida o'zlashtirilgan – bu reps, gabardin, poplin va flanel, yupqa klassik yo'l –yo'l va "yolochka", yumshoq jun gazlamalari. Uslub favoriti – shim va yubka, nimcha bilan klassik kostyum.

Kiyimda klassik uslubni tipik na'munasi – ingliz uslub. Bu uslub uch asr maboynida rivojlanadi va modani injiqligiga qaramasdan o'z ommabopligini yo'qotmadi. "Ingliz kostyum" tushunchasi XVIII asrda paydo bo'lgan. Aynan shu vaqtda Angliyada shakli va rangi bo'yicha sipo kiyim uslubi yuzaga kelgan.

XX asrni 80–chi yillarida otda yurish kostyum juda ommabop bo'lgan: movutdan frak, redingot – etagi to'g'ri ustki kiyim, tor pantolonlar, qaytarmali etiklar. Bu odmi kostyumni ingliz kostyumi deb atashadigan bo'ldi.

Ingliz uslub ayollar kostyumiga xam ta'sir etdi: silueti o'zgardi, ayollar qattiq moslamalarni (karkaslarni) kiyimaydigan bo'ldi, bu kiyimni qulay va oddiyoq qildi. XIX asrni 80–chi yillarida ayollar modasiga erkaklar kostyumini bichimini eslatadigan kostyum kirdi: astarli jaket va to'g'ri shaklli taxlamali yoki taxlamasiz yubka. Shunday kostyumni odatda erkak ustalari tikishgan. Ingliz kostyumi ko'zga tashlanmaydi, shuning uchun yorqin emas, yo'l –yo'l yoki katak –katak gazlamalari qo'llanadi. [1]





Asosiy qism. Bugungi kunda Respublikamizda yengil sanoat sohasida jadal suratda olib borilayotgan islohotlar olib borilmoqda hamda ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy

uskunalar bilan jihozlanmoqda, natijada ish samaradorligi oshib mahsulot sifati jahon bozor talablariga mos bo'lishiga xizmat qilyapti

Biz bilamizki, kundalik kiyimlar funktsional, estetik, gigiyenik talablarga, shuningdek, ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik talablariga javob berishi kerak. Funktsionallik talablariga ko'ra, kundalik kiyim uning maqsadiga mos kelishi kerak. Ergonomik talablarga muvofiq, ayollar klassik liboslari inson qiyofasiga, statik va dinamikada individual antropometrik xususiyatlarga, psixofiziologik xususiyatlarga va gigiyenik talablarga mos kelishi kerak.

Ma'lumki, klassik liboslar biz ayollarning garderobida eng ko'p kiyiladigan kiyimlarimizdan hisoblanadi. U biz uchun doimo qulay, chiroyli, chidamli va mavsumbob bo'lishi lozim. Buning uchun biz eng avvalo klassik libos uchun sifatli gazlama tanlashimiz lozim.

Kuz-qish mavsumidagi ayollar klassik liboslari uchun tavsiya qilinuvchi gazlamalar assortimenti

No	Gazlama nomi	Rasm	Tavsifi
1.	Korduroy		Ingliz tilidan tarjima qilingan "kadife" baxmal degan ma'noni anglatadi. Nozik iplardan zich to'qilgan gazlama. Velvetning eng yaxshi tanilgan navi kadife bo'lib, uning old tomonida bosma naqshli yo'li bor. Kiyim-kechak kostyumlar, qishki ko'ylaklar, pidjaklar, shimlar tayyorlash mumkin.
2.	Jensi		Ustki hamda belli kiyimlari ishlab chiqarishda ommabop va an'anaviy jinsi gazlamasi. Paxta tolasidan tayyorlangan tabiiy eksplutatsion hususiyatlari yuqori gazlama. Pillinglanmaydi. Tayyorlangan buyumlar uzoq muddat foydalanishga imkon beradi.
3.	Interloq		Bu "rezina tasma" tuzilmasiga ega bo'lgan har ikki tomondan ham silliq to'qilgan trikotajdir. Yuqori sifatli hamda deformatsiyaga chidamli, har qanday cho'zilishdan keyin avvalgi shakliga qaytadi.
4.	Tvid		Tvid - bu teksturasi jun tolali diagonal to'qilgan mato. Tvid gazlamasidan kostyumlar, paltolar, kurtkalar, shimlar, yubkalar, sumkalar, shlyapalar, galstuklar va boshqa kiyimning qo'shimcha aksessuarlarini tikish mumkin.

Kostyumda transformatsiyani ta'minlovchi bir qator texnika mavjud: cho'zilish-siqish; ajratib olish-birlashtirish; yo'naltirish-mahkamlash (fiksatsiya); bukish (yopish)-ochish (yoyish); yo'q bo'lish (yashirish)-paydo bo'lish; detallarni almashtirish; joyini almashtirish. Transformatsiya bu-(lot. Transformation-o'zgartirish)-faoliyatning maqsad yo'nalishini o'zgartirib, tuzilmalarni, shakl va usullarni o'zgartirish; yoki biror narsaning o'zgarishi, tashqi ko'rinishi, shakli, muhim xususiyatlari o'zgarishi.

Biz taklif qilayotgan modelda, ayollar mavsumiy kiyimini loyihalashda, mamlakatimiz iqlim sharoitida, havo haroratining fasllarda tez-tez o'zgarishi hisobga olgan holda yaratilgan. Bizni mavsumiy klassik libosimiz tavsiya etayotgan yangi dizayndagi ustki kiyimimizning mavjudlaridan farqi transformatsiya usulidan foydalanib, yilning ikita fasli: bahor, kuz mavsumga mo'ljallanganligidadir. Libosimiz havo haroratiga qarab yoqa, yeng qismlari maxsus taqilmalar orqali ajraladi. Astar qismini ham mavsumga moslab almashtirish mumkin. Bu libosimiz qora mato bilan kombinatsiya qilingan bo'lib, to'lachadan kelgan ayollarni yanada nozikroq, nafisroq qilib ko'rsatishga imkon beradi. Klassik kiyimlar kun davomida kiyib yurilishini hisobga olib unga ortiqcha bezak choklar va taqilmalardan foydalanilmagan.



1-rasm. Asosiy taklif model.

Dizayner konyum kolleksiyasini yaratishda avval ijodiy manbaaga asoslanadi. Har bir dizayner, o'z kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalardan tortib, oddiy bir oshxona buyumigacha, tabiiy mihitning turli elementlaigacha foydalanishi mumkin. Asosiy taklif modelimizga ijodiy manbaa sifatida atirguldand foydalandik. Uning rangi va yaproqlarining tuzilishidan ilhomlanib yaratildi.



2-rasm. Ijodiy manba sifatida tanlangan rasm.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Materiallarni konfeksiyalash” o’quv uslubiy majmua J.S. Ergashev, N.B.Maqsudov
2. Qudbiyev N.T, Qudbiyeva G.A. & Abduraximov B.U.O (2022). dolzarbligi. Scientific progress, 3(1), 133-142.
3. Davlyatova Logistikada raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan Foydalanishning G.M. & Abdullaeva S.H. (2020). Economic perspectives of using the model “UNIVERSITY 3.0” in the education system of Uzbekistan. Экономика и бизнес: теория и практика, (2-1).
4. Davlyatova G.M. & Tolibov I. (2019). Sh. Abdullaeva. Lizing ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilishning asosi sifatida. Molodoy ucheniy, 471-475.
5. “Проектирование женской трансформируемой одежды”. Л.М. Тухбатуллина.

INNOVATIVE
ACADEMY